

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

YULDASHEVA MADINA KAXRAMONOVNA

**HAYVONLARNING OPERATSION VA TASODIFIY JAROHATLAR
BITISHIGA PROBIOTIKNING TA'SIRI**

16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Yuldasheva Madina Kaxramonovna

Hayvonlarning operatsion va tasodifiy jarohatlar bitishiga probiotikning
ta'siri..... 3

Юлдашева Мадина Кахрамоновна

Влияние пробиотика на заживление операционных и случайных ран у
животных..... 23

Yuldasheva Madina Kakhramonovna

The effect of a probiotic on the healing of surgical and accidental wounds in
animals..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ..... 49
List of published works.....

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

YULDASHEVA MADINA KAXRAMONOVNA

**HAYVONLARNING OPERATSION VA TASODIFIY JAROHATLAR
BITISHIGA PROBIOTIKNING TA'SIRI**

16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand - 2026

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/V193 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurziyev Baxtiyor Doliyevich
veterinariya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Eshburiyev Sobir Baxtiyorovich
veterinariya fanlari doktori, dotsent

Isayev Masrab Tursunbayevich
veterinariya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.V.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 6 - may soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M. Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99855) 707-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14362 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99855) 707-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «24» aprel kuni tarqatildi.
(2026 yil «24» apreldagi № 13-raqamli reyestr bayonnomasi).



X.B.Yunusov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

K.X.Urnakov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, v.f.f.d. (PhD), dotsent

Q.N.Norboev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, v.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi va uy hayvonlarida uchraydigan yallig'lanish jarayonlari, xususan, yumshoq to'qimalarning yiringli jarohatlari tibbiyot va veterinariya amaliyotida eng keng tarqalgan va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu patologiyalar ko'p uchrashi, og'ir klinik kechishi, uzoq davom etuvchi davolash jarayoni va asoratlar rivojlanish xavfi bilan tavsiflanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yuqumsiz kasalliklar orasida jarrohlik patologiyalarining ulushi 40%¹ ni tashkil etadi, shuningdek hayvonlardagi jarrohlik kasalliklarining 25–54%² ini yumshoq to'qimalarning yiringli yallig'lanishi bilan kechadigan patologiyalar tashkil etadi. Bunday jarayonlar hayvon organizmida umumiy intoksikatsiya, mahalliy to'qima destruksiyasi, regeneratsiya jarayonlarining sekinlashuvi va mahsuldorlikning pasayishiga olib keladi. Shu sababli hayvonlarda yiringli jarohatlarning turlari, uchrash darajasi, kechish xususiyatlari, simptomlari va iqtisodiy zararini o'rganish hamda davolash usullarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ilm-fanida va veterinariya amaliyotida hayvonlar orasida yiringli jarohatlarning kelib chiqishi, tarqalishi hamda morfologik va klinik xususiyatlari keng o'rganilgan. Biroq mazkur patologiyalarning murakkab etiologiyasi va patogenezi, mikrobiotsenoz tarkibining o'zgaruvchanligi hamda organizm reaktivligining individual farqlari yagona ilmiy yondashuvni shakllantirishni qiyinlashtirmoqda. Amaliyotda qo'llanilayotgan an'anaviy davolash usullari ko'pincha uzoq davom etib, antibiotiklarga rezistent mikrofloraning rivojlanishi va qaytalanuvchi asoratlar bilan tavsiflanadi. Shu sababli xizmat itlari va uy hayvonlarida jarohatlarga erta va aniq tashxis qo'yish dolzarb hisoblanadi. Jarohatlarni dastlabki bosqichlarda samarali davolash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jarohatlarning tez va sifatli bitishini ta'minlash veterinariya amaliyotining muhim vazifalaridan biridir. So'nggi yillarda biologik faol preparatlarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Xususan, probiotiklarning yiringli jarohatlarning kechishiga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan baholanmoqda. Ular yallig'lanishni cheklash va immunitetni kuchaytirish xususiyatiga ega. Probiotiklarning optimal dozalari, samaradorligi va xavfsizligini aniqlash dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz davlat tuzilmalarining kinologiya xizmatlarida chet ellardan olib kelinayotgan totdor itlarda jarrohlik kasalliklarining oldini olishga qaratilgan veterinariya tadbirlari muntazam amalga oshirilmoqda. Biroq muammo hanz dolzarbligicha qolmoqda. Shunga qaramay, mexanik shikastlanishlar, kurashish va xizmat vazifalari bilan bog'liq jarohatlar oqibatida yuzaga keladigan jarrohlik

¹ Матвеев В. М. Разработка состава и применения антисептического ранозаживляющего геля для животных. – 2021. – С. 1-145.

² Раксина И. С. Эффективность применения препарата "Ранинон" при лечении гнойных кожно-мышечных ран у животных : дис. – Санкт-Петербургская государственная академия ветеринарной медицины, 2012. – С. 1-216.

kasalliklari, xususan, yiringli jarohatlar so'nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda. Ushbu tendensiya kinologiya xizmatidagi itlarning yuqori jismoniy faolligi, xizmat vazifalarining og'irligi hamda shikastlanish xavfining doimiyligidan kelib chiqadi. Mavjud vaziyat va kuch tuzilmalaridagi kinologiya xizmatining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, zotdor itlarda yiringli jarohatlarni erta aniqlash, ularni samarali va tizimli davolash hamda tiklanish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan davolash tizimini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunda zamonaviy veterinariya texnologiyalari, biologik faol preparatlar, xususan probiotiklar va mahalliy terapiya usullari ilmiy asosda qo'llanilishi, jarohatlarning komplikatsiyasini kamaytirish va itlarning xizmat qobiliyatini saqlab qolish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»³gi farmoni, 2019 yil 28 martdagi PQ-4254-son O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi va 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabrdagi 750-son «Ichki ishlar organlarining kinologiya xizmatlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi; Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi; Itlar va qishloq xo'jalik hayvonlarida keng tarqalgan turli darajadagi jarohatlar, flegmona, trofik yaralar va boshqa mikrobial patologiyalarni probiotiklar orqali davolash masalasi bo'yicha xorijiy mualliflardan H.B. Данилевская, А.И. Афанасьева, I. S. Savitskaya, S. F. Swaim, C. Togo, Y. Yu, A. Sinha, B.M. Руколь, M.K. Гайнуллин, Н. Сверчкова, Е. Коломиец, P.P. Вахитов va boshqalar keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

O'zbekistonda probiotik preparatlarni o'rganish bo'yicha bir qator olimlar, xususan A.T. Raximov, G.Dj. Kutlieva, Sh.N. Nasimov, Z.B. Mamatova va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo yiringli jarohatlarni davolashda probiotiklardan samarali foydalanish usuli, haqidagi ma'lumotlar nazariy va amaliy jihatidan o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.

tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, innovatsion rivojlanish agentligining «Qishloq xo'jaligi veterinariya va atrof-muhit muhofazasi» yo'nalishidagi PZ-2020123121 raqamli va Jahon banki ishtirokidagi "O'zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish" Xalqaro doirasida RCP dasturining "Innoprovet probiotigini veterinariya sohasida sanoat usulida ishlab chiqarish va tijoratlashtirish" innovatsion loyihalar doirasida va 9784-harbiy qism (Jizzax viloyati, Ravot) «Xizmat hayvonlarida uchraydigan barcha yuqumli, yuqumsiz va parazitlar kasalliklarni oldini olish, xizmat itlari va xizmat otlari kasalliklariga tashxis qo'yish va davolash» (2023 y.) bo'yicha tuzilgan xo'jalik shartnomalari asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hayvonlarda operatsion va tasodifiy jarohatlarni davolashda Innoprovet probiotigining samaradorligini, uni qo'llash va veterinariya amaliyotiga joriy qilish uchun optimal me'yorlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari;

hayvonlarda yiringli jarohatlar tarqalishini, kelib chiqish sabablarini aniqlash; turli yiringli jarohatli manbalardan patogenlarni ajratib olish, xususiyatlarini va turini o'rganish hamda antibiotik va probiotiklarga sezuvchanligini aniqlash;

yiringli jarohatlarni davolashda probiotiklarning quyonlardagi fiziologik, gematologik va gistologik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish;

yiringli jarohatlarni davolashda probiotiklarning mushuk va itlardagi fiziologik, gematologik ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish;

turli hayvonlardagi yiringli jarohatlarni probiotiklar bilan davolashning samarali usulini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Respublika ichki ishlar vazirligining Samarqand viloyati kinologiya xizmati markazi va Samarqand viloyati bojxona boshqarmasi kinologiya xizmati va 9784-harbiy qism (Jizzax viloyati, Ravot) xizmat itlari va aholiga tegishli itlar, xususiyy veterinariya klinikalari hamda aholiga qarashli quyon va mushuklardan foydalangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib quyon, it va mushuklarda uchraydigan yiringli jarohatlar kechishi bilan bog'liq fiziologik, gematologik va gistologik ko'rsatkichlar, shuningdek, ushbu jarohatlarni probiotiklar yordamida davolashning samarali usullari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Mazkur dissertatsiya ishini bajarishda mikroblar identifikatsiyasi, antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash, hayvonlarni klinik, gematologik, jarohatlarni klinik, "ImitoMeasure" kompyuter dasturi yordamida planimetrik, gistologik, statistik va jarrohlik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Respublikamiz kinologiya pitomniklaridagi xizmat itlari va aholiga qarashli it va mushuklarda operatsion jarohatlar 59,6 %, tasodifiy jarohatlar 40,4 % ni tashkil etishi, tasodifiy jarohatlar orasida eng ko'p tishlangan va kesilgan jarohatlar uchrashi aniqlangan;

ilk bor yiringli jarohatlarning qo'zg'atuvchisi *Streptococcus pyogenes*ga nisbatan mahalliy Innoprovet probiotigining yuqori antimikrob samaradorlikka ega ekanligi ilmiy isbotlangan;

itlarning operatsion jarohatlarini davolashda Innoprovot probiotigi va siprofloksatsin antibiotigini kombinativ qo'llashning samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan;

quyon, it va mushuklarda yiringli jarohatlarni davolash uchun Innoprovot probiotigi va antibiotik siprofloksatsin kombinatsiyasini qo'llashning samaradorligi hayvonlarning klinik, gematologik va jarohatlardagi gistologik o'zgarishlarga qarab baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi kinologiya pitomniklarida, shuningdek, SamDVMChBU "Veterinariya jarrohligi va akusherlik" kafedrasida klinikasiga keltirilgan hayvonlar orasida operatsion va tasodifiy jarohatlar tarqalishi, kelib chiqish sabablari o'rganilgan;

itlarda yiringli jarohatlarga nisbatan Innoprovot probiotigi bilan antibiotikning birgalikdagi qo'llanilishi yuqori terapevtik samara berishi aniqlangan;

yiringli jarohatlar bitish dinamikasini baholashda "ImitoMeasure" kompyuter dasturidan foydalanish orqali diagnostik aniqlik va samaradorlikni ta'minlashi ko'rsatilgan;

itlarda probiotik qo'llashning fiziologik va gematologik ko'rsatkichlarga ta'siri birinchi bor tizimli ravishda o'rganilgan;

itlarda yiringli jarohatlarni davolashda antibiotik va probiotiklarni qo'llashning optimal doza va tartibini aniqlashga oid eksperimental tadqiqotlar o'tkazilib, ularni amaliy qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi tadqiqotning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, birlamchi ma'lumotlarga ishlov berish va amaliy tahlil qilish, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar natijalari bilan chuqur ilmiy tahlil etilganligi, mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqotlar va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, ilmiy ish natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati hayvonlarda uchraydigan turli jarohatlarning klinik-nazariy jihatlari har tomonlama o'rganilganligi, xususan, ularning kelib chiqish sabablari va tarqalish xususiyatlari, klinik namoyon bo'lish belgilari chuqur tahlil qilinganligi, davolash maqsadida qo'llanilgan mahalliy va zamonaviy terapevtik vositalarning ta'sir samaradorligi klinik, gematologik va gistologik ko'rsatkichlar asosida baholanganligi, ushbu tahliliy ma'lumotlar turli jarohatlar kechishi va ularni davolashdagi muvaffaqiyatli usullar nazariy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bugungi kunda hayvonlarda uchraydigan turli jarohatlar keng tarqalganligi aniqlandi va ularni davolashda samarali yangi mahalliy dorivor vositalar amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi. Tavsiya etilgan davolash usullarining joriy qilinishi natijasida jarohatlarning bitish muddati qisqarishi kuzatildi. Bu esa hayvonlarda jarohatlar tufayli yuzaga keladigan iqtisodiy zararni sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hayvonlarning operatsion va tasodifiy jarohatlar bitishiga probiotikning ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

«Hayvonlarning jarohatlarini davolashda probiotiklardan foydalanish» bo'yicha uslubiy tavsiyanoma tasdiqlangan va Toshkent Milliy Kinologiya markazi, Samarqand va Jizzax viloyatlari Ravot 9784-harbiy qismda viloyatlari kinologiya pitomniklariga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish Qo'mitasining 2025 yil 17 noyabrdagi 02/23-844-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni xizmat itchiligidagi qo'llanilishi natijasida itlarda shikastlanishlar oqibatida turli jarohatlarini samarali davolash imkoniga erishilgan;

Itlarning yiringli jarohatlarini davolashda tuzalgunga qadar har kuni ichimlik suviga $1,0 \times 10^9$ KHB/ml Innoprovet probiotigini qo'shib berish, $2,0 \times 10^9$ KHB/ml probiotik eritmasini drenaj sifatida hamda siprofloksatsin antibiotigini 1 ml muskul orasiga qo'llash usuli Toshkent Milliy Kinologiya markazi, Samarqand va Jizzax viloyatlari Ravot 9784-harbiy qism kinologiya pitomniklariga joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish Qo'mitasining 2025 yil 17 noyabrdagi 02/23-844-son ma'lumotnomasi). Ushbu kompleks davolash usulini qo'llash natijasida yiringli jarohatlarning bitishini 3-5 kunga qisqartirish imkoniyati yaratilgan, bunda iqtisodiy samaradorlik sarflangan 1 so'm uchun 7,1 so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatitsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 8 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ularning 3 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, shuningdek 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «Kirish» qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejafari bilan bog'liqligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliliigi ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy etilishi, aprobatitsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida hayvonlarda jarohatning kelib chiqish sabablari va tarqalishi, yiringli jarohatlarning qo‘zg‘atuvchilari va kechish xususiyatlari, probiotiklarning tibbiyot va veterinariyadagi ahamiyati, probiotiklar jarrohlik kasalliklar va yiringli jarohatlarni davolashda qo‘llanilishi, hayvonlarda yiringli jarohatlar turlari haqida umumiy ma‘lumotlar bayon etilgan. Ilmiy adabiyotlarda hayvonlardagi yiringli jarohatlarni davolash, tiklanishni tezlashtirish va infeksiyani oldini olish bo‘yicha ma‘lumotlar yetarlicha emasligi bu muammoning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligini ko‘rsatadi.

Shuning bilan birga, probiotiklar va antibiotiklar veterinariya va tibbiyotda to‘qima regeneratsiyasini faollashtiruvchi vositalar sifatida qo‘llanishi haqida ma‘lumotlar, ularning hayvonlardagi yiringli jarohatlarni davolashda samaradorligi haqidagi tadqiqotlar ma‘lumotlarining tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqot materiallari va uslublari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, ob‘yekti va uslublari bayon etilgan. Tadqiqot ob‘yekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Qo‘mitasi Milliy kinologiya markazi, Samarqand va Jizzax (Ravot, 9784-harbiy qism) viloyatlari kinologiya pitomniklaridagi itlarda olib borilgan.

Ilmiy tadqiqotlarning eksperimental qismi 2023-2025 yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti vivariysida 15 bosh quyonda va 9 bosh itda, «Veterinariya jarrohligi va akusherlik» kafedrasida klinikasida olib borilgan tadqiqotlar davomida operatsion jarohatlar 10 bosh itda, shuningdek, tasodifiy jarohatlangan 9 bosh mushukda o‘rganildi, “Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya” kafedrasida qoshidagi laboratoriyasida, Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi “Bakteriologiya laboratoriyasida” yiringli jarohatlarning qo‘zg‘atuvchilari ajratilib, turini aniqlash ishlari bajarildi. Quyondan, mushuk va itlarning qonlarini gematologik, morfologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlari “Samarqand diagnostik” klinik laboratoriyasida o‘rganildi. Yiringli jarohatlardan olingan materialdan gistopreparatlar Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi patanatomiya bo‘limida tayyorlandi va o‘rganildi.

Yiringli jarohatlardan ajratilgan piogen mikroblarning xususiyatlari, antibiotiklarga va probiotiklarga sezuvchanligi standart uslublari asosida o‘rganildi. Quyondan va itlarning sun‘iy jarohatlari Yu.G. Suxovey usuli bo‘yicha amalga oshirildi va ularni klinik ko‘rsatkichlari maxsus davolash sxemalar bo‘yicha probiotik va antibiotikning samaradorligini klinik, gematologik, gistologik ko‘rsatkichlari va statistik ishlov berilganligi bo‘yicha tadqiqot materiallari va uslublari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **«Probiotiklarni operatsion va tasodifiy jarohatlarni bitishiga ta’siri bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari»** deb nomlangan uchinchi bobning «Turli yiringli jarohatlardan qo‘zg‘atuvchini ajratib olish, xususiyatlarini o‘rganish va turini aniqlash» qismida Mikrobiologik tekshirishlarini o‘tkazishdan avval 3 bosh mushuk klinik ko‘rikdan o‘tkazilib, ulardan olingan yiring bakteriologik tekshirildi va ajratib olingan mikroblar kulturalarning morfologik, tinktorial, kultural xususiyatlari o‘rganildi. Ajratilgan mikroblar quyidagi

xususiyatlarga ega bo'lganligi aniqlandi: spora, kapsula hosil etmaydigan gram-musbat kokk mono, diplo va zanjir shaklida joylashgan, suyuql:20 steril fiziologik eritma bilan 5% defibrilgan qon, shakarli bulyonda ushoqsimon hosilalar o'sishi qayd etildi, bulyonning shaffofligi kuzatildi. Zich oziqa muhitida nozik, tiniq, dag'al yuzali va notekis qirrali mayda koloniyalar o'sishi kuzatildi. Mikroblarni aniqlash uchun kulturani +10° va 45°C haroratda, 6,5% NaCl, pH 9,6 muhitlarda, 40% o't suyuqligida, 0,1% metilen ko'ki qo'shilgan sutda, 30 daqiqa qizdirilgandan keyin o'stirishda uch bosh mushukdan ajratilgan kulturadan salbiy natijalar olindi. Tanlangan kulturalarni biokimyoviy xususiyatlarini o'rganishda uchala zardob muhitlarida ham gaz, vodorod sulfid, indol hosil qilmadi, katalazaga manfiy natija ko'rsatdi hamda galaktoza, maltoza, mannitni yaxshi fermentlaganligi kuzatildi.

O'rganilgan kultural - morfologik va biokimyoviy xususiyatlari bo'yicha, uch bosh mushukdan olingan yiringli materialdan ajratilgan mikroblar *Streptococcus pyogenes* avlodiga mansub ekanligi aniqlandi.

I-jadval

***Streptococcus pyogenes*da probiotik preparatlarning bakteritsid faolligini o'rganish natijalari**

<i>Str.pyogenes</i> ga ta'sir qilgan probiotiklar	<i>Str. pyogenes</i> sonini kamayishi (%)		
	6 soatdan keyin	24 soatdan keyin	96 soatdan Keyin
Innoprovett1	32±1,1	62 ± 3,9	100
Innoprovett2	39 ± 0,9	78 ± 2,6	100
Sporovetin	16 ± 2,9	45 ± 3,3	81 ± 2,6
Vetom 1,2	16 ± 2,9	51 ± 0,5	78 ± 1,8
Vitasporin 12V	21 ± 1,8	51 ± 2,3	86 ± 4,2
Nazorat (<i>Str. Pyogenes</i> probiotiksiz o'stirilishi)	-	-	-

Ushbu bobning "Yiringli jarohatni qo'zg'atuvchisini probiotik va antibiotik preparatlarga sezuvchanligini o'rganish" qismida tadqiqotlarda ajratilgan mikroblarni 5 ta probiotikka (Innoprovett1, Innoprovett2, Sporovetin, Vetom 1,2, Vitasporin-12V) hamda antibiotiklarga (floramfenikol, gentamitsin, levofloksatsin, trimetaprim, penitsillin, makrolan, enrofloksatsin, siprofloksatsin, enrofloksatsin+bromgeksin, bitsillin-5, enrofloksatsin-penitsillin, bitsillin-3) sezuvchanligi o'rganildi va ushbu mikroblarga *Bac.subtilis*, *Bac. licheniformis*lardan tayyorlangan Innoprovett2 probiotik preparati eng erta (6 soatda *Str.pyogenes* soni 39±0,9 gacha, 24 soatda - 78±2,6 gacha kamayishi) va yuqori (96 soatda 100% gacha kamaygan) antagonistik faollikka ega ekanligi isbotlandi (I-jadval).

Ushbu usul yordamida *Streptococcus pyogenes* shtammining antibiotiklarga sezuvchanlik spektri aniqlanib, keyingi davolash strategiyasini tanlash uchun ilmiy

asos yaratildi. Tadqiqot doirasida samaradorligi bo'yicha siprofloksatsin antibiotigi tanlandi (2-jadval).

2- jadval

Ajratib olingan *Str. pyogenes* kulturasiining antibiotiklarga sezuvchanligini o'rganish natijalari

Antibiotiklar	<i>Str.pyogenes</i> ajratib olingan kulturaning antibiotiklarga sezuvchanligini o'rganish natijalari
Makrolan № 6	20 mm
Bitsillin5 № 10	-
Siprofloksatsin № 8	31 mm
Penitsillin № 5	-
Gentamitsin № 2	15 mm
Bitsillin3 № 12	-

Yuqoridagilar inobatga olingan holatda, *Bacillus subtilis* va *Bacillus licheniformis* turkumiga mansub probiotik bakteriyalarni va oldingi tadqiqotlarda tanlangan siprofloksatsin antibiotigi bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish maqsadi qo'yildi.

O'tkazilgan tajribalar natijasida yiringli jarohatlar qo'zgatuvchisi *Streptococcus piogenes*ga qarshi antogonistik faoliyatga ega bo'lgan probiotik - Innoprovet va antibiotik - siprofloksatsin kelgusi tajribalarda foydalanish uchun tanlandi. Ushbu preparatlarning nafaqat mikrobgga qarshi ta'sir xususiyati, balki bir-birining hayotiy faoliyatiga to'sqinlik ko'rsatmasligi ham aniqlandi va davolashda ikkalasini birgalikda qo'llash mumkinligiga asos bo'ldi (3-jadval).

3-jadval

***Bacillus subtilis* va *Bacillus licheniformis* turkumiga mansub probiotik bakteriyalarning va antibiotiklar bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish natijalari**

	Siprofloksatsin bilan	Enrofloksatsin bilan	Levofloksatsin bilan	Trimetaprim bilan	Xloramfenikol bilan
Innoprovet (<i>Bacillus subtilis</i> , <i>Bacillus licheniformis</i>)	mikroblar zich qoplama hosil qilib o'sgan -	mikroblar zich qoplama hosil qilib o'sgan --	mikroblar zich qoplama hosil qilib o'sgan --	mikroblar zich qoplama hosil qilib o'sgan --	mikroblar zich qoplama hosil qilib o'sgan --
Izoh:	Antibiotiklar Innoprovet probiotigini o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qilmaydi				

Bacillus subtilis va *Bacillus licheniformis* turkumiga mansub probiotik bakteriyalarni va antibiotiklar bilan o'zaro munosabatlarini o'rganilganda antibiotiklar Innoprovat probiotigini o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiya uchinchi bobining «Quyoning yiringli jarohatlarni davolashda probiotik va antibiotiklarning ta'sirini taqqoslama o'rganish natijalari» deb nomlangan qismida tajribaga olingan Innoprovat probiotigining ta'sir xususiyatlarini aniqlash uchun 15 bosh quyong 3 ta guruh (2 ta tajriba va 1 ta nazorat) larga ajratildi. Hayvonlarning barchasida son qismining lateral tomonida jarohat (Yu.G. Suxovey usulida) hosil qilindi. Davolash ishlari quyidagi 3 ta maxsus sxema bo'yicha olib borildi:

1-tajriba guruhidagi quyonlarda jarohat bo'shlig'i 1:5000 nisbatdagi furatsilin eritmasi bilan yuvilib, Innoprovat probiotigi ($2,0 \times 10^9$ KHB/ml) bilan drenaj qo'yildi va har kuni jarohat bitguncha probiotik ($1,0 \times 10^9$ KHB/ml 1 kunda) suvga qo'shib ichirildi.

2-tajriba guruhida jarohatga furatsilin eritmasi bilan ishlov berilgandan keyin Innoprovat probiotigi ($2,0 \times 10^9$ KHB/ml) bilan drenaj qo'yildi va har kuni jarohat bitgunga qadar probiotik ($1,0 \times 10^9$ KHB/ml 1 kunda) suvga qo'shib ichirildi va muskul ichiga 1 ml 0,2%-li siprofloksatsin antibiotigi yuborildi.

Nazorat guruhida jarohatga ishlov berilgandan keyin, bo'shlig'i 1:5000 nisbat furatsilin bilan yuvildi va jarohat atrofidagi to'qimalarga 1 ml siprofloksatsin antibiotigi yuborildi.

Davolashning dastlabki kunlarida barcha guruhlaridagi quyonlarda ishtahasi pasayishi, umumiy tana harorati ko'tarilishi, puls va nafas olish soni bir oz tezlashishi kuzatildi. Tajribadagi barcha guruhdagi quyonlarda jarohat yuzasi 1-tajribadagi quyonlarda $4,70 \pm 0,07$, 2-tajribadagi quyonlarda $4,74 \pm 0,05$, nazorat guruhdagi quyonlarda $4,14 \pm 0,33$ sm² tashkil etdi. Jarohat sohasida mahalliy harorat, shish, palpatsiyada og'riq va yiringli eksudat ajralishi kuzatildi. Keyinchalik, davolashning keyingi uchinchi kundan boshlab barcha guruhlardagi quyonlarning umumiy holati va ishtahasi o'zaro deyarli farq qilmagan edi (birinchi guruhdagilarda tana harorati birinchi kun o'rtacha 38,5 °C, 3 kundan keyin - 39,7 °C; ikkinchi guruh quyonlarda - 38,4 °C va 39,8 °C tashkil etdi; nazorat guruhdagilarda - 38,5 °C va 39,6 °C tashkil etgan edi), puls va nafas olish soni bir oz tezlashishi kuzatilgan edi. Ikkinchi tajriba guruhidagilarning jarohatlar yuzasi va birinchi tajriba guruhidagi quyonlarni jarohatlari bilan solishtirganda jarohat ichidagi va yuzasidagi yiring miqdori kamroq edi.

Tadqiqotning 7-kundan boshlab hamma guruhlardagi quyonlarda barcha klinik ko'rsatkichlari, jumladan, ishtaha, tana harorati me'yorlashdi. Biroq, nazorat guruhi va birinchi tajriba guruhidagi quyonlarda jarohat yuzasi bir oz suyuqlik borligi, rangi och pushti, atrofi qizil rangda, chetlari notekis, yuzasida yiring mavjudligi va palpatsiyalashda og'riqligi kuzatildi. Ikkinchi guruhidagilarda esa jarohat og'riqli, yuzasida - yupqa qora qo'tir hosil bo'lishi qayd etilgan edi.

14-kunda nazoratdagi quyonlarda jigarrang, yupqa va osongina ajraladigan qora qo'tirlar periferiyadan markazga qarab qoplagan, jarohat atrofidagi to'qimalar

og'riqsiz bo'lganligi kuzatilgan edi. Ikkinchi tajriba guruhidagi quyonlarda esa chandiq (epitelizatsiya) jarayoni yakunlangan edi.

Nazorat guruhidagi quyonlarda jarohat yuzi $20-21$ -kunning kuzatish muddatida o'rtacha $0,88 \pm 0,07 \text{ sm}^2$; birinchi tajriba guruhida $0,26 \pm 0,05 \text{ sm}^2$ bo'lganligi; ikkinchi tajriba guruhidagi quyonlarda jarohatning to'liq bitishi kuzatilgan edi. Jarohatning bitish muddati nazorat guruhidagi quyonlarda $20-21$ kunda, birinchi tajriba guruhidagi quyonlarda $17-18$ kunda, ikkinchi tajriba guruhidagi quyonlarda $14-15$ kunda to'liq bitish muddati aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining tahlili ko'rsatishicha, quyonlar qonidagi gemoglobin davolashdan oldin nazorat guruhidagi quyonlarda $85,3 \pm 1,8 \text{ g/l}$, birinchi tajriba guruhidagi quyonlarda $85 \pm 1,2 \text{ g/l}$, ikkinchi tajriba guruhidagi quyonlarda $85,3 \pm 1,5 \text{ g/l}$ ni tashkil etdi. 5 -kunida dastlabkiga nisbatan pasayganligi aniqlandi (nazorat guruhida $82 \pm 2,5 \text{ g/l}$, birinchi tajriba guruhida $80,7 \pm 7,2 \text{ g/l}$, ikkinchi tajriba guruhida $83,3 \pm 1,8 \text{ g/l}$). Keyinchalik o'sish tendensiyasi $10-15$ -kunlari namoyon bo'ldi. Tajribaning so'ngida uchala guruhlardagi quyonlar qonidagi gemoglobin miqdori dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori bo'lganligi qayd etildi ($88,3 \pm 2,3$; $92,7 \pm 1,9$; $93,3 \pm 2,2 \text{ g/l}$).

Shu kabi o'zgarishlar gemoglobin ko'rsatkichlariga mos ravishda eritrotsitlarning son ko'rsatkichlari o'zgarishlarida ham namoyon bo'lganligi kuzatildi, davolashdan oldin quyonlarda (nazorat guruhida $5 \pm 0,1$, birinchi tajriba guruhida $5,1 \pm 0,3$, ikkinchi tajriba guruhida $5 \pm 0,4 \text{ mln/mkl}$), davolashning 5 -kunida eritrotsitlarning son ko'rsatkichlari sezilarli o'zgarish kuzatildi (nazorat guruhida $3 \pm 0,2$, birinchi tajriba guruhida $3,1 \pm 0,1$, ikkinchi tajriba guruhida $3 \pm 0,3 \text{ mln/mkl}$) tashkil etdi. $10-15$ kunlari barcha guruhdagi quyonlarda qonining tarkibidagi eritrotsitlar soni (nazorat guruhida $5,3 \pm 0,2$, birinchi tajriba guruhida $5,7 \pm 0,4$, ikkinchi tajriba guruhida $5,8 \pm 0,6 \text{ mln/mkl}$) ga oshishi kuzatildi.

Uchala guruh quyonlari qonidagi leykotsitlar miqdori davolashdan oldin meyor darajasida edi (mos ravishda $6,8 \pm 0,1$; $6,8 \pm 0,1$; $6,9 \pm 0,1 \text{ ming/mkl}$ ($p < 0,05$)). Tajribaning 5 -kunida ham bu ko'rsatkich o'sishda tendensiyasini namoyon etdi va barcha guruhidagi quyonlarda yuqori bo'lganligi kuzatildi ($10,6 \pm 0,5$; $10,1 \pm 0,7$; $10,2 \pm 0,4 \text{ ming/mkl}$). Bu holat yallig'lanish jarayoni boshlanganligidan dalolat beradi.

Tajribaning 15 -kunida 1 -tajriba guruhi quyonlar qonidagi leykotsitlar miqdori ($6,8 \pm 0,1 \text{ ming/mkl}$) dastlabki holatiga qaytganligi kuzatildi, 2 -tajriba guruhida $6,5 \pm 0,1 \text{ ming/mkl}$ ($p < 0,05$) edi. Nazorat guruhi quyonlarida tajribaning 15 -kunida leykotsitlar soni ($7,1 \pm 0,2 \text{ ming/mkl}$ ($p < 0,05$)) dastlabki va boshqa guruhdagilar ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori bo'ldi.

Tajribadagi uchala guruhlardagi quyonlarning qonida eritrotsitlarning cho'kish tezligi (EChT) sun'iy jarohat hosil qilishdan oldin me'yor chegarasida bo'lgan. Tadqiqot davomida hamma guruhlardagi quyonlarda EChT natijalari me'yor ko'rsatkichlariga ko'ra o'zgarmaganligi qayd etildi. Eozinofillar barcha guruhidagi quyonlarda 5 -kuni barcha guruhlarda yallig'lanish jarayonining faol bosqichi kuzatilib, eozinofillar soni 1 -tajriba guruhda $4,3\%$, 2 -tajriba guruhda $4,7\%$, nazorat guruhida $4,3\%$ bo'lib, 15 -kunda - $2-2,7\%$ gacha me'yorga yaqinlashgan. Neytrofillar soni davolashning 5 -kunida 1 -tajriba guruhda - 49% , 2 -

tajriba guruhda 50,7%, nazorat guruhida - 50,3% bo'lib, va monotsitlar 5,3% dan 6,3% miqdorgacha oshgan, 15-kuniga kelib esa 2,3-4% oralig'ida bo'ldi. Limfotsitlar esa 5-kunda mos ravishda 1-guruhda 40,3%, 2-guruhda 39,3% va nazoratda 40% kamaygan. 15-kunda limfotsitlar soni tiklanib, ayniqsa 2-guruhda 63% gacha etgan edi. Ushbu qon tarkibidagi ko'rinishlar yallig'lanishning kamayishi, immun tizimning faol tiklana boshlaganini ko'rsatadi.

Quyondarning jarohat to'qimalari gistologik o'rganilganda davolashning 14-kunida nazorat va birinchi tajriba guruhlaridagilarda jarohatlarning bitish jarayoni sust kechishi va nekrotik to'qimalar saqlanib qolishi, yallig'lanish infiltratsiyasi yuqoriligi hamda granulyatsion to'qima morfologik jihatdan yetilmaganligi kuzatildi. Ushbu guruhlarda epitelial qoplama kech tiklangan, fibroblastlar faoliyati past, hosil bo'lgan chandiqli to'qima esa notekis tuzilishga ega bo'lgan edi.

Ikkinchi tajriba guruhida gistologik belgilar ancha ijobiy natijalarni ko'rsatib, jarohat joyida erta granulyatsion to'qima hosil bo'lishi, nekrotik qatlamlar kamayishi, fibroblastlarning proliferatsiyasi va angiogenez jarayoni faollashganligi va natijada epitelial qatlam qayta tiklanishi tezlashganligi, chandiqli to'qima silliq shaklda hosil bo'lganligi kuzatildi.

Dissertatsiyaning «It va mushuklar jarohatiga probiotikning ta'siri» deb nomlangan to'rtinchi bobning «Hayvonlar orasida operatsion va tasodifiy jarohatlarni tarqalishi va kelib chiqish sabablari» qismida ko'rsatilgan tadqiqotlar SamDVMChBU «Veterinariya jarrohligi va akusherlik» kafedrasida klinikasiga 2022 yildan 2024 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida klinikada jami 245 ta jarrohlik amaliyoti bajarilgan. Ushbu operatsiyalar 137 bosh mushuk va 108 bosh itlarda amalga oshirilgan. Klinikada bajarilgan operatsion jarohatlarning 59,6% ini (18,2% osteosintez + 17,3% o'smalarni olib tashlash) onkologik va ortopedik yo'nalishdagi amaliyotlar tashkil etdi. Qolgan 24,04% ini operatsion jarohatlar esa boshqa turdagi jarrohlik aralashuvlardan keyin qayd etgan.

Tasodifiy jarohatlar umumiy jarohatlar tarkibida 40,4% ni egallab, ularning ichida tishlangan (30 bosh; 38,14%), kesilgan (22 bosh; 27,84%), balandlikdan sakrash bilan bog'liq sabablar (17 bosh; 22,16%) va sanchilgan jarohatlar (9 bosh; 11,86%) eng ko'p kuzatilgan. Shu bilan birga, Samarqand viloyati kinologiya pitomniklarida aniqlangan 116 bosh itlarda jarohatlardan 78 boshida tasodifiy jarohatlar qayd etilib, bu jami itlardagi jarohatlarning (67,2%) ni tashkil etgan.

Ushbu bobning «Itlarda turli operatsiyalardan keyingi operatsion jarohatlarning bitishi va probiotik hamda antibiotiklar ta'siri» deb nomlangan qismida ovariyektomiya, kesarcha kesish, osteosintez va o'smalarni olib tashlash kabi jarrohlik amaliyotlaridan keyin itlarda hosil bo'lgan operatsion jarohatlar bitishi jarayoniga probiotik vositaning ta'sirini o'rganish maqsadida tadqiqot uchun 10 bosh jarohatlangan itlar ikki guruhga ajratildi. 1-guruh (tajriba): antibiotik va probiotik kombinatsiyasi bilan davolandi (hayvonlarga antibiotik siprofloksatsin muskul orasiga yuborilib, probiotik Innoprovet ichirildi $1,0 \times 10^9$ KHB/ml, probiotik jarohat yuzasiga 1 ml da $2,0 \times 10^9$ KHB/ml qo'llanildi); 2-guruh (nazorat): jarohat atrofidagi to'qimalarga 1 ml siprofloksatsin antibiotigi yuborildi. Har ikkala guruhda hayvonlarning umumiy klinik holati, tana harorati, yurak

urishi, nafas olish soni, shilliq qavatlar va teri holatlari muntazam kuzatib borildi. Jarohat yuzasi planimetrik usul yordamida (*Imitomeasure* dasturi) o'Ichandi.

Operatsiyadan keyingi 3-kunda ikkala guruhdagi itlarda jarohat sohasidagi qon tomirlar kengaygan, plazma chiqishi kuchaygan, ya'ni qondagi suyuqlik to'qimalarga chiqib, shish va qizarishni vujudga keltirgan edi. Shu bilan birga leykotsitlar, makrofaglar va yallig'lanish mediatorlari faol ravishda jarohat zonasiga to'planib, organizmning infeksiyaga qarshi himoya mexanizmini ishga tushirilganligidan dalolat berdi.

Tajriba guruhida (antibiotik va probiotik berilgan itlarda) shish, giperemiya va og'riqlar 3-kunda pasayib, granulyatsion to'qima hosil bo'lishi, 3-4 kunlarda jarohat chetlarida epitelii hujayralar ko'payishi, yangi to'qima bilan qoplanishi, 6-8 kunlarda jarohat yuzasi deyarli to'liq yopilishi kuzatilgan edi.

Nazorat guruhida (faqat antibiotik berilgan itlarda) shish va qizarish 2-3 kun davom etdi, granulyatsion to'qima 4-5 kunlarda shakllandi, epitelizatsiya esa 10-12 kunlarda tugallandi. Jarohatning to'liq bitishi 12 kun davom etib, tiklanish sur'ati sekinlashishi kuzatilgan edi.

Ushbu bobning «Mushuklar jarohatlari bitishiga va gematologik ko'rsatkichlarga probiotik va antibiotikning ta'siri» deb nomlangan qismda 2023-2024-yillarda «Veterinariya jarrohligi va akusherlik» kafedrasida qoshidagi klinikaga qabul qilingan har xil yosh va zotga mansub, shuningdek har xil turdagi jarohatlarga ega bo'lgan 9 ta mushuklar qo'llanib o'tkazilgan tadqiqotlar bayon etilgan.

Dastlab hayvonlarga umumiy va mahalliy og'riqsizlantirish o'tkazildi, jarohat bo'shlig'i reviziyasi vaqtida nekrotik va devitalizatsiyalangan to'qimalar olib tashlandi va yiringli jarohatlarni davolashda kontrapetura usuli yordamida drenaj texnikasi chuqur va yiring bilan to'lgan jarohatlarda qo'llanildi. Yiringli eksudat erkin chiqishini ta'minlash maqsadida jarohatning pastki qismida 1-2 sm kenglikda yiring chiqish yo'li - kontrapetura hosil qilindi va mushuklarni uch guruhga ajratib davolash quyidagi sxemalar bo'yicha olib borildi.

1-tajriba guruhi: jarohat bo'shlig'i 1:5000 nisbatda furatsilin eritmasi bilan yuvilib probiotik bilan drenaj qo'yildi ($2,0 \times 10^9$ KHB/ml) va har kuni $1,0 \times 10^9$ KHB/ml miqdorda probiotik har kuni tuzalgunga qadar ichirildi.

2-tajriba guruhi: jarohat bo'shlig'i 1:5000 nisbatda furatsilin bilan yuvildi, probiotik bilan drenaj qo'yilib ($2,0 \times 10^9$ KHB/ml), har kuni 1 ml da $1,0 \times 10^9$ KHB/ml miqdorda Innoprovot probiotigi ichirtirildi va muskul ichiga siprofloksatsin antibiotigi yuborildi.

Nazorat guruhi: jarohat bo'shlig'i 1:5000 nisbatda furatsilin bilan yuvildi va jarohat atrofidagi to'qimalarga siprofloksatsin antibiotigi yuborildi.

Tajribadagi har uchala guruh mushuklarda davolashdan avval qondagi gemoglobin miqdori 1-kunda me'yoridan bir oz pasayishi ($76,3 \pm 1,5$, $78,0 \pm 2,1$, $79,3 \pm 2,0$ g/l), davolashning 5-kunida (1-guruhda - $74 \pm 3,5$ g/l; 2-guruhda - $75,3 \pm 3,6$ g/l; nazorat guruhida - $75,0 \pm 2,6$ g/l) aniqlandi. Qondagi gemoglobin miqdorining kamayishi organizmning himoya reaksiyasi pasayishidan dalolat beradi. Davolashning so'ngi 15-kunida barcha guruhlarda gemoglobin miqdorining

oshishi kuzatildi (1-guruhda - $90,0 \pm 3,2$ g/l, 2-guruhda - $92,7 \pm 2,9$ g/l, nazorat guruhida - $87,7 \pm 3,5$ g/l).

Shuningdek, mushuklar qonining tarkibidagi eritrotsitlar soni davolashning 5-kunida me'yor chegarasidan pasayishi kuzatilib ($3,8 \pm 0,2$; $3,8 \pm 0,6$; $4,1 \pm 0,1$ mln/mkl), davolashning 15-kunida 1-tajriba guruhda - $5,7 \pm 0,7$; 2-tajriba guruhda - $6,8 \pm 1,4$; nazorat guruhida - $5,5 \pm 0,8$ mln/mkl ko'tarilish tendensiyasini namoyon etdi.

Uchala guruhlardagi mushuklarning qonidagi leykotsitlar soni aniqlanganda davolashning 5-kunida 1-guruhda - $18,3 \pm 3,0$; 2-guruhda - $18,7 \pm 3,0$; nazorat guruhida - $18,6 \pm 2,3$ ming/mkl ($p < 0,05$) ga teng edi. Bu holat tajriba davomida leykotsitlar salbiy dinamikasining eng yuqori darajasini egallab, jarohat joyida yiringli yallig'lanish mavjudligidan dalolat berdi. Davolashning 15-kunida esa 1-guruhda - $7,5 \pm 0,9$; 2-guruhda - $7,6 \pm 0,6$; nazorat guruhida - $9,5 \pm 3,2$ ming/mkl ni tashkil etdi. Tadqiqotdagi barcha mushuklar qonidagi eritrotsitlarning cho'kish tezligi (ECHT) davolashdan oldin (1-tajriba guruhda - $27,7 \pm 3,2$; 2-tajriba guruhda - $22,7 \pm 1,2$; nazorat guruhida - $18,0 \pm 1,7$ mm/s) va davolashning 5-kunida (1-tajriba guruhda - $22,3 \pm 3,0$; 2-tajriba guruhda - $21,7 \pm 1,5$ mm/s dastlabkiga nisbatdan sekinlashishganligi kuzatildi; nazorat guruhida - $22,0 \pm 0,6$ mm/s avvaligiga nisbatdan 4 mm/s gacha uzayganligi kuzatildi) ECHT natijalari ham mushuklarning hammasida me'yor ko'rsatkichlaridan oshganligi aniqlandi. Davolashning 10-kunida nazorat guruhida 5-kunga nisbatdan 5,2 mm/s gacha sekinlashdi va 15-kunida ($11,7 \pm 1,5$ mm/s) o'z me'yoriga qaytganligi kuzatilgan edi. Tadqiqotning birinchi va ikkinchi tajriba guruhlaridagi mushuklarida 10-kunda dastlabki ko'rsatkichlarga qaraganda 6,7 mm/s gacha sekinlashganligi kuzatildi, 15-kunga kelib ($15,6 \pm 2,8$; $15,2 \pm 2,5$ mm/s, $p < 0,05$) me'yor ko'rsatkichlariga kelganligi aniqlandi.

